

## ULUG‘BEK HAMDAM IJODIDA RAMZIY OBRAZLAR

**Rahmonjonova Osiyo Kamoliddin qizi**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti,  
1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining zamonaviy vakili Ulugbek Hamdamning asarlaridagi ramziy obrazlarning badiiy va falsafiy talqini tahlil qilinadi. Xususan, yozuvchining “Muvozanat” romani “Tosh”, “Bir payola suv” hikoyalardagi timsollar orqali inson ruhiyati, vijdon, manaviy iztirob va hayot falsafasining yoritilishi ilmiy-nazariy nuqtai nazardan o‘rganilgan. Ramziy obrazlar orqali yozuvchi inson va jamiyat, ruh va tan, mavjudlik va yolg‘izlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalab bergani ko‘rsatib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** obraz, xarakter, ramz, g‘oya, tasvir, mahorat, uslub, ichki kurash, shaxs va jamiyat, falsafiylik.

**Kirish.** Hozirgi o‘zbek nasriy chiligi badiiy -estetik yangiliklar bilan yangilanmoqda. Istiqloq ijodkorlarining asarlarida ramziy obrazlar juda chuqur, falsafiy talqin qilinmoqda. O‘zbek zamonaviy nasrida inson qalbi, ichki kechinmalarini chuqur ochib berish, ruhiy tahlilni falsafiy darajada yoritish tendensiyasi kuchaygan. Shu yo‘nalishda ijod qilayotgan, 1968-yil 24-aprelda Andijon viloyati Marhamat tumanida tug‘ilib, qalbida ijod zavqini tugayotgan bir paytda duradgor-otasiga butun yoz yumushlariga qarashib, otasidan olgan pullari va onasining tandirda yopilgan issiq nonlarini tugib Toshkent tomon yo‘l olgan va “Yozuvchilar qishloqlarda tug‘ilib shaxarlarda o‘ladilar” deydi ana shunday qarashlarga mos ravishda harakatlanib, poyezdlarda tik turib, yoz bo‘yi ishlab otamdan olgan kissamdagi pullarni o‘g‘irlatib, idod zavqi tufayli Toshkentga qatnab yurganman deydi yozuvchining o‘zi-Ulugbek Hamdam. Yozuvchi hayot mashaqqatlarini haqiqat va hayolot dunyosini chuqur, falsafiy yosinda ramziy obrazlar orqali ochib berayotgan va shu yo‘nalishda ijod qilayotgan zamonaviy, o‘zbek yozuvchilaridan hisoblanadi. U o‘z asarlarida insonning ichki olamini ramziy obrazlar vositasida ifodalash orqali badiiy tafakkurni yangi bosqichga olib chiqdi. Ramzlardan oqilona foydalanish ramz orqali chuqur manoni ifodalab berish oldingi davr shoirlarimizda ham bolgan. Masalan o‘tgan asrda yashab ijod qilgan Oybek va uning “Namatak” she’ri misolida uchratish mumkin. Hozirgi zamonaviy davrda esa ramz orqali chuqur hayot haqiqatlarini ochib berayotgan bugungi kun balki o‘tgan asr muammolari haqida qalam tebratayotgan shoirlarimizdan biri Ulug‘bek Hamdam.

Soddagina predmet yoki bir shaxs orqali kitobxonni chuqur o‘yga tolshga majbur qiladi. Ramziy ma’no ortidan har bir o‘quvchi, kitobxoniga oyna tutadi, aniqrog‘i o‘zini anglashga undaydi. Yozuvchi asarlarida ramz faqat badiiy bezak emas, balki asarning falsafiy mohiyatini ochuvchikalit vazifasini bajaradi. Ulardan biri besh yil bosmaxonada yotib, turli xil tanqidlarga sabab bo‘lgan va hayot haqiqatlari aks etib, o‘zida

purmanolikni ifodalaganligi sabab, keyinchalik o‘zbek yozuvchilaridan biri bo‘lgan Ozod Sharafiddinov tufayli dunyo yuzini ko‘rgan roman bu-muvozanatdir. Yozuvchining yana turli mavzularda qissa, sher va hikoyalari chop etgan. ”Tosh”, “Bir piyola suv” hikoyalari shular jumlasidan. Bu hikoyalari o‘zbek nasrida chuqur ramziy qatlamga ega asarlar sirasiga kiradi.

“Muvozanat” mini romanida ramziy obraz.

“Muvozanat” romanida bir necha ramziy obrazlar talqinida yaqin o‘tmishimiz, ruhiyatimizdagi keskin o‘zgarishlarni yuzaga chiqargan davrdagi muvozanatsizlik holati tasvirlanadi. Yozuvchi bu asarida muvozanat tushunchasiga badiiy nuqtai nazardan yondashadi va muvozanatning inson hayotining har bir tarzida, jabhasida namoyon bo‘lishi, muvozanatning buzilish holatlarini bir necha obrazlar orqali ko‘rsatib beradi. Ijodkor roman voqealari tasvirida kontras usulidan foydalanib, syujetni ana shunday qarama-qarshiliklar bilan boyitib boradi. Jumladan “shahar va qishloq”, “boylik va qashshoqlik”, “baxt va iztirob”, “iymon va nafs” kabi. Roman bosh qahramoni Yusufning bolaligi, o‘smirligi va bundan tashqari 60 ga yaqin faol va nofaol epizodlar mavjud. Asarda tog‘, quyosh, qor kabi predmetlar ramziy ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib dunyoning muvozanati Allohning inoyati bilan bir maromda yurgizib qo‘yilgani ramziy timsollar orqali tasvirlab beriladi. Asardagi oppoq qor ramziy ma’noda g‘uborlanmagan oppoq ko‘ngil timsoli hisoblanadi. Asarda 3-ta davr haqida hikoya qilinadi, va bosh qahramon-Yusuf bu yozuvchining o‘zi ekanligi, Amir esa bu yozuvchining akasi Oybek Hamdamov ekanligini aytib o‘tadi yozuvchining o‘zi. Bu esa har bir asar hayotiy voqealar tufali vujudga kelishiga yaqqol misoldir. Amirning vafot etishi, Yusuf esa ikki dunyo foniy-yolg‘on va haqiqiy dunyo orasidagi o‘z muvozanatini saqlab yurishga, oldinga harakatlanishga, yoshlarga yangi davr ruhiyati, kelajak haqida orzular qilishga va o‘tmishdan xulosalar chiqarib, odamlarning parvozigga yo‘l ko‘rsatadigan obraz sifatida tasvirlanadi. Yana asarda joy nomi bilan bog‘liq ramziy obraz uchraydi. Ulug‘tog‘-millatning eng yuksak orzulari, milliy mustaqillik erkinlikning ramzi sifatida tasvirlangan. Daryo-hayot timsoli, undagi oqim-insonlar ketayotgan yo‘llardir.

“Tosh” hikoyasida ramziy obraz

“Tosh” hikoyasida asosiy ramz toshdir. Tosh inson vijdonining og‘irligi, ayb va gunohning ruhiy bosimini anglatadi. Hikoyadagi qahramon o‘z gunohining yukini tosh shaklida his etadi. Bu ramz orqali yozuvchi inson vijdonini tozalash jarayonini, o‘zini anglash yo‘lini ko‘rsatadi. Toshning “yurakda og‘irlik qilishi” ramzi ruhiy yuk ramzi sifatida insonning hayotiy sinovlaridagi iztirobni ifodalaydi, hamda hikoyada go‘zal bir ayol, uning qong‘ir sochlari, ayoqlari tasvirlanib qahramonni o‘ziga tortishi, sotuvchi va baliq voqealari haqida so‘z yuritilib, ayolning labi qonligi boshidanoq qahramonning

xatti harakatlari noto‘g‘riligi ramzidir.Osha tun uhlay olmay chiqishi, tongga yaqin uhlab tush ko‘rishi, tushida esa qo‘liga tosh bilan urgani singari. Hikoyada qahramon ichki tuyg‘ulari bir voqea orqali chuqur go‘zal holda tasvirlanadi.

“Bir piyola suv” hikoyasida ramziy obraz

“Bir piyola suv” hikoyasidagi suv hayot ramzi hisoblanib, nega aynan bir piyola, chunki inson bu hayotga bir marta kelishi, bu hayotdagi qiyinchiliklar bilan toblanishi haqida so‘z borgan. Suv insoniyat hayotining abadiy manbai bo‘lib, yozuvchi uni ruhiy yangilanish, mehr va insoniylik timsoli sifatida ishlatadi. Hikoyadagi bir piyola suv oddiy hayotiy detal bo‘lsa-da u inson yuragidagi mehr va insoniylik timsoli sifatida ishlatadi. Hikoyadagi bir piyola suv oddiy hayotiy detal bo‘lsa-da, inson yuragidagi mehr-muruvvat va saxovatni anglatadi. Va hikoya inson umri davomida uni turli xil ko‘yga soluvchi nafs balosi yashirin qahramon, soddalik, oddiy predmetlar orqali go‘zal talqin qilingan. Oddiy predmetlar yo‘l-umr, ot qo‘shilgan arava tobut kabi ramziy obrazlar orqali hikoya boyitilgan. Va hikoyada kun chiqishida yuklatilgan vazifa kun botguncha tugatilishi, yani umrning tez o‘tib ketishi kun botganiga esa umr ham oz poyoniga yetishi sodda jonlik bilan ifodalangan. Hikoyada qahramonning bir piyola suv ichishi, nafsini qondirish orqali umri o‘tib ketgani, suv haqini to‘lash uchun navbatda turib tashqariga chiqqanida esa soch soqoli oqargani, qari ahvolga kelganligi go‘zal ifodalar bilan aks ettirilgan. Ulug‘bek Hamdam o‘z hikoyalarida turki ramzlar orqali insonlarni chuqur o‘yga to‘ldiradi. Real voqealarni, haqiqatlarni ramzlar orqali ochib insonlarni yahshilikka chorlaydi. Yozuvchida chuqur falsafiylik bor.

**Xulosa.** Ulug‘bek Hamdam hikoyalaridagi ramziy obrazlar yozuvchining falsafiy qarashlarini, inson ruhiyatiga bo‘lgan chuqur e‘tiborini namoyon etadi. Har bir ramz-insoniy mohiyatni, vijdon va mehr, hayot va yolg‘izlik orasidagi ziddiyatni ochuvchi badiiy vositadir.”Tosh” vijdon azobi, “Bir piyola suv” umr, nafs balosi ramziga aylangan. Shu tariqa yozuvchi ramzlar orqali insoniyatning ma’naviy qiyofasini aks ettiradi. Ulug‘bek Hamdam ijodi o‘zbek nasrida ramziy tafakkurning chuqur ildiz otganini, adabiyotimizda inson ruhiyatiga falsafiy nigoh bilan qarash an’anasining davom etayotganini tasdiqlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Hamdammov,U. Badiiy tafakkur tadriji. -Toshkent : Yangi asr avlodi, 2002.
- 2.Hamdammov,U. Yangilanish ehtiyoji. -Toshkent : Yangi asr avlodi, 2006.
- 3.Hamdammov,U. Muvozanat. -Toshkent : Sharq nashriyoti,2007.
- 4.Quronov,D. Adabiyotshunoslikka kirish.- Toshkent : Akademnashr.
5. Internet manbalari: zamonaviy ozbek adabiyoti haqidagi maqolalar va tahlillar.